


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi
№ BD-60530200
60530200-1.16
2024_yil "10" _____
"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori: R.I.Xalmuradov
2024_yil " " _____



GEOMORFOLOGIYA VA GEOLOGIYA ASOSLARI FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 -Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200- Geografiya

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
GA2306	2025-2026	3	6
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Hafizadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	6	
1.	fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Umumiy (soat)
		72	180

2.	Geomorfologiya va Geologiya asoslari	108	180
I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – Fanni o'qitishdan maqsad - o'quv jarayonida geografiya sohasida kelajakda ishlaydigan yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun ahamiyati bo'lgan «Geologiya va geomorfologiya asoslari» fani sohalari bilan tanishtirishdan, olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustaxkamlashdan va ularni amaliyotda ko'lashtirish o'rganishdan iboratdir. Bulardan tashqari talabalarda geologiya va geomorfologiya sohaslarida zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni, meliorativ tadbirlarni va gidrotekhnika inshootlarining loyihasi tuzish, ularni ko'rish va ekspluatatsiya qilish ishlarida bajariladigan geologik, geomorfologik hamda boshqa usullarning texnikasi bilan tanishtirishni, tadqiqot va qidiruvdan olingan ma'lumotlarni ijodiy qo'llashni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Fanning vazifasi – Yerning shakli, kattaligi, tuzilishi, tarkibi, harakati, rivojlanish bosqichlari, geologik jarayonlar haqidagi ma'lumotlar va ularni Yerning relifining hosil bo'lishidagi o'rni, Yerning relifi, relef elementlari, shakllari va turlari, relef turlarining yer yuzasida taqsimlanishi, o'ziga xosligi va ularni turli geografik tadqiqotlarni bajarishda hisobga olish, litosfera va unda sodir bo'ladigan endogen geologik jarayonlar, ularni relef hosil qilishdagi ahamiyatini o'rganish. Shuningdek, atmosfera, gidrosfera va ularning ta'sirida rivojlanadigan endogen geologik jarayonlar, ekzogen geologik jarayonlarning yer yuzasida turli xil relef shakllari, turlari va yotqizilqlar hosil qiluvtchi faoliyatlari, rivojlanish qonuniyatlari, yer yuzida tarqalishi va ularni geodezik, geologik ishlarni bajarishda hisobga olish, geologik, geomorfologik qidiruv va tadqiqot ishlarning turlari, mazmuni va hajmini tahlil etish kabilarini o'rganishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Geologiya va geomorfologiya asoslari fani, predmeti tadqiqot ob'ekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi, va boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Hozirgi zamon geologiya fani va geologik ob'ektlar, mineralar, tog' jinslari, geologik regionlar, Yer va Yer geosferalarini, ularning geologik tarixda vujudga kelishini tushunishga o'rganishdir. Shu bilan birga uning xalq xo'jaligidagi va mineral xom ashyo bazasini yaratishdagi atrof muhitni himoya qilishdagi roli ta'kidlab o'tiladi. Yerning tuzilishi hamda taraqqiyot tarixini o'rganishga asos yaratishdir. Mazkur kursning maqsadi talabalarga geologiya fanini rivojlantirish, endogen va ekzogen jarayonlar xamda tarixiy geologiya asoslari xaqida bilimlar berishdir. Geologiya fanining tarkib topish tarixi. Mil.av. yashab o'tgan va o'tra asrlardagi faylasuf va olimlar fikri. O'tra Osiyolik olimlarning geologiya fanining rivojlanishiga qo'shgan hisslari. O'tra Osiyoda geologiya va uning tarmoqlarini rivojlantirgan olimlardan X.Abdullaev, I.Hamroboev, G'Mavlonov, T.Dolimonov va boshqalar. Geomorfologiya fanining ob'ekti, predmeti, boshqa fanlar bilan aloqasi. Geomorfologiya fanining shakllanish tarixi va rivojlanishi. Geomorfologiya– relef to'g'risidagi fan. Yer yuzasi relifining tuzilishi, kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari va dinamikasini tadqiq etishdan iborat. Chet ellik va vatandosh olimlarning geomorfologiya fanining shakllanishi va rivojlanishidagi hisslari. Relefi taraqqiyoti va shakllanishi to'g'risidagi Beruniy, Ibn Sino, Lomonosov, Devis, O'Poslavskaya, N.Kogay, M.Mamatqulov va b. olimlarning g'oyalari hamda ilmiy meroslari. 2-mavzu. Yer haqida umumiy tushuncha. Yer va litosferaning tuzilishi va asosiy xususiyatlari. Yerning shakli xaqidagi dastlabki tasavvurlar, Yerning shakli, Yerning yadrosi, mantiya, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera va ularning o'zaro aloqasi. Geografik qobiqlarning shakllanishida geosferalarning ahamiyati. Yer po'sti – Yerning qattiq tashqi qobig'i. Cho'kindi, granit va bazalt qatlamlar, Moxo chegarasi. Yer			

po'stining kimyoviy tarkibi.

3-mavzu. Geoxronologiya xaqida tushunchalar. Yerning geologik rivojlanish tarixi.

Yer va yer po'stining yoshi. Nisbiy va mutlaq geologik yosh. Yerning yoshini aniqlash usullari. Radiologik yosh. Geoxronologiya shkalasi. Eon, era, davr, bo'lim, yarus. Geologik yotqizilqlarning xronologik bo'linish bilan vaqtlar bo'yicha ajralishi. Geoxronologiya Yerning geologik taraqqiyoti majmuasi ekanligi. Tokembriy geologik davrlarning rivojlanish tarixi. Arxey erasi haqida, Proterozoy erasi haqida.

Yer sayyorasining paleozoy erasi va paleogeografiyasi, Ordovik geologik davri va uning paleogeografiyasi, Silur geologik davri va uning paleogeografiyasi, Kaledon burmalanishi, Devon davriga umumiy tavsif. Toshko'mir geologik davri, Gersin tog' burmalanish epoxasi, Palobiogeografiya, Ordovik haqida umumiy ma'lumotlar, sromatoporalar, tabulyatorlar, geliolitoidiya, rugozia, ignatanillar (dengiz nilufarlari, dengiz ko'piksimonlari), qulflari braxiopodalar (artidlar, sromenidlar), rimonella penta-meridlar o'rganish.

Kaynazoy va uning paleogeografiyasi, Paleogen davriga umumiy tavsif, Neogen geologik davri va uning paleogeografiyasi, Neogen davrida umumiy tavsif, To'rtlamchi (Antropogen) geologik davri, Sochma konlar, Cho'kindi konlar, Nometal konlar va qurilish xom-ashyolari, Yonuvchi qazilmalar, Yer osti suvlari va muzlari.

4-mavzu. Endogen jarayonlar. Tektonik va neotektonik harakatlar.

Yer po'stidagi tektonik harakatlar. Burmali, uzilmali, epeyrogenik harakatlar. Ularning relif hosil bo'lishdagi roli. qadimgi, hozirgi va yangi tektonik harakatlar. Tektonik xarakatlarning xillari (tebranma, yorma, seysmik jarayonlar). Qatlarning burmashang shakllari, tasnifi. Verikal va gorizontal tektonik harakatlar. Geosinklinal va platforma viloyatlari va ularning unsurlari, Intruziv magnatizm, effuziv magnatizm, Vulkan turlari, geyzerlar, geotektura, morfostruktura va morfoskulptura tushunchalari.

5-mavzu. Yer po'stining minyerallik tarkibi.

Minerallarning kimyoviy sinflari, minyerallarning qattiqlik shkalasi, minyerallarning solishtirma og'irligi, Minyerallarning mo'rtiligi, pachoqlanishi va qayish-qoqligi, sof elementlar, sulfidlar, g'allidlar, oksid va gidroksidlar, organik biriktirmalar va h.k. Tog' jinslari to'g'risida tushuncha. Ularning turlari (cho'kindi, magmatik, metamorfik), genezisi, tarkibi, strukturalari va boshqa xususiyatlari.

Kristologiya. Kristallarning muxim xususiyatlari, Kristallning cheklovchi elementlari, Kristall panjaralar, Yiq burchaklarning doimiylik qonuni, Turti shakldagi kristallardan o'tgan simmetriya o'qlari, kristallografik shakllar, Silikatlar, sulfidlar, karbonatlar va boshqalar.

6-mavzu. Zilzila

Zilzilalarning yer shariida tarqalishi. Zilzilaning sabablari, O'pirlilish zilzilalari.

Vulqonli zilzilalar, O'pirlilish zilzilalari, Tektonik zilzilalar, Zilzila oqibatlari, Zilzila dahshatlari, Zilzila o'lchamlari, Seysmik rayonlashirish, Zilzila darakhchilari o'rganish.

7-mavzu. Endogen geologik jarayonlar. Magnatizm

Magnatizm jarayonlar, effuziv magnatizm, Endogen jarayonlar, vulkanizm, Intruziv jinslarning yer po'stida yotish shakllari, Intruziv jinslarning yer po'stida yotish shakllari intruziv tanalar, Intruziv magnatizm, effuziv magnatizm. Vulqonlar turlari, suyuq vulqon maqsulotlari. Vulkanlarning geografik tarqalishini o'rganish.

8-mavzu. Metamorfizim

Metamorfizim tushunchasi. Metamorfizim bilan bog'liq bo'lgan relef shakllari va foydali qazilmalar. Metamorfik tog' jinslarini strukturalari, kristall oblasli struktura, Metamorfik tog' jinslarini teksturalari (Massiv, yo'l-yo'l, gneyssimon, slanetsimon, hol-hol, ochkovaya), Metamorfik tog' jinslarini tasnifi o'rganish.

9-mavzu. Ekzogen jarayonlar. Nurash va relef.


Nurash. Nurash tiplari tushunchasi. Tog' jinslarining nurashi va relef shakllarning hosil bo'lishi. Nurash po'stlog'i. Kimyoviy va biologik nurash. Nurash turlari geografiyasi. Nurash mahsulotlari va ular bilan bog'liq bo'lgan foydali qazilmalar.

10-mavzu. Ekzogen jarayonlar shamolning geologik ishi.

Iqlim mintaqalari va shamollar turi. Shamollarning geologik va geomorfologik ishi. Deflyatsiya, eol, akkumulyatsiya tushunchalari. Eol relef shakllari. quruq o'lkalardagi eol jarayonlar.	11-mavzu. Daryolarning geologik faoliyati. Suv oqimi geologik ishini ayrim umumiy qonuniyatlari. Suv oqimining tirik kuchi. Delyuviy, loyqa va yotqiziq, Gumid o'lkalarda flyuvial relef shakllari. Eroziya, tashish, akkumulyatsiya, eroziya bazisi. Vaqtincha oqar suvlar ular bunyod etgan relef shakllari. Daryo o'zani, meandra, qayir, terrasa, vodi, havza. Doimiy oqar suvlarining geologik ishi. Vodiylarning morfologik va tektonik tiplari. Vaqtincha oqar suvlarining geologik ishi. 12-mavzu. Karst jarayonlari ishi natijasida kelib chiqqan relyef shakllari Karst tushunchasi. Karst hodisasining hosil bo'lishidagi geologik va tabiiy geografik omillar. Karst tiplari: ochiq va yopiq, ularning morfologiyasi, geografiyasi. Karst jarayoni va ularni o'rganishning ilmiy ahamiyati. Karstli o'lkalarda daryolar va qurilish ishlari. 13-mavzu. Muzlik, ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyati. Muzlarning hosil bo'lishi va ularning geografik tarqalishi. Glyatsial, xionosfera, qor chegarasi va b. tushunchalar. Tog' va materik muzliklarining relefi va relef hosil qilishdagi ahamiyati. qadimgi va hozirgi muz bosib bosqichlari. Morenalar. Doimiy muzloq yerlardagi geologik jarayonlar. Muzloq (to'ng) yerlar tushunchasi. Ko'llarning genetik xillari. 14-mavzu. Arid o'lkalar relefi Arid tushunchasi. Shamolning relef hosil qilishdagi ishtiroki. Tropik va o'rtacha kengliklardagi cho'l va chala cho'l'larda eol jarayonlari. Shamolning tezligi bilan eol jinslarning yirikligi va tashilishi o'rtasidagi bog'liqlik. Eol relef shakllari: botqoqlar, eol qozoni, barxan, dyuna, qumli gryadalar. Arid o'lkalarda xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlari. 15-mavzu. Dengiz va okeanlarning geologik faoliyati. cho'kindi tog' jinslari. Dunyo okeani va uning qismlari. Suv oqimlari, gravitatsion oqimlar. Akkumulyatsiya jarayonlari va ular hosil qilgan tog'lar. Nerid, batial, abissal va gipabissal mintaqalarda sodir bo'ladigan ekzogen jarayonlar va ulardagi relef shakllari. Okean tubidagi harakatdagi vulkanlar va zilzilalar. 16-mavzu. Tog'lar morfologiyasi Tog'lardagi endogen va ekzogen jarayonlar va ular bilan bog'liq bo'lgan relyef shakllari, tog'larning mutlaq balandliklarga ko'ra turlari. Tog'larning genetik tiplari va ularning geografiyasi. Tog'lar ham abadiy emas, yoshi, yemirilishi. Pediment, peneplen, tekislangan yuzalar, yassi tog'liklarning hosil bo'lish mexanizmi. Tog'larning geomorfologik landschaft, iqlimiy mintaqalanishi. Tekisliklar morfologiyasi. Tekisliklarning paydo bo'lishi va genetik tiplari. Tekislik o'lkalarning morfologiyasi va relef hosil qiluvchi asosiy omillar. Ekzogen relyef shakllarining hosil bo'lishida iqlim mintaqalari va tabiiy zonalarining ta'siri va xususiyatlari.	III. Analiz (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiflar. Analiz mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Geologiya va geomorfologiya fanining rivojlanish tarixi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 2. Yer paydo bo'lishi, yerning ichki tuzilishi va geosferalar. 3. Litosfera, yer po'stining rivojlanish qonuniyatlari 4. Geoxronologiya, yerning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganib chiqish. 5. Tokembariy geologik davrlari tarixi bo'yicha xaritalar, kesm chizmalarini chizish. 6. Paleozoy erasi tarixi. quyi paleozoy erasi paleogeografiyasi, tog' buralanishi tarixi va quyi paleozoy erasi superyemateriklarning rivojlanishi. Kaynozoy erasi paleogeografiyasi, foydali qazilmalari. matyeriklar rivojlanish tarixi, paleogeografiyasi. okean va dengizlarning rivojlanish davri 7. Endogen jarayonlarga tegishli chizmalar chizish va ularga tavsif berish 8. Litosfera plitalari tektonikasi
---	--	--

7. Tarixiy geologiya, platforma va geosinklinalar, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi. 8. Tog' jinslari va mineralarning umumiy xususiyatlari. Sof-tug'ma mineralar. nometall va metall mineralarni laboratoriya sharoitida aniqlash. sulfidlar, sul'fatlar sinfiga kiruvchi mineralarni aniqlash. 9. Zilzila jarayonlarini o'rganish. Magmatizm jarayonlarini o'rganish. Vulkanizm jarayonlarini o'rganish. 10. Metomorfik tog' jinslarini o'rganish. 11. Cho'kindi tog' jinslari xosil bo'lishi va turlarini o'rganish. 12. Nurash jarayonlari. yonbag'irlar va relyef. Shamolning geologik faoliyati natijasida hosil bo'lgan relyef shakllarini o'rganish 13. Flyuvial jarayonlar va relyef shakllarini chizish va ularning tahlili. 14. Karst jarayonlari va relyef shakllari 15. Muzliklarning geologik ishi va relyef shakllarining tahlili. 16. Ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyatini o'rganish. 17. Arid iqlimli o'lkalarning relyefi va uning tahlil qilish. 18. Tog'lar morfologiyasi 19. Dunyo okeani va dengizlarning geologik faoliyatini o'rganib chiqish. Okean tubi relyefi. 20. Geomorfologik xaritalar tuzush. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlr 1. Yerning shakli, kattaligi va xarakati 2. Geosferalar kesimi i chizish 3. Topografik xaritalardan foydalanib relef turlarini va shakllarini aniqlash 4. Litosferaning asosiy tektonik-strukturaviy elementlari, ularning rivojlanishi va joylashishi 5. Mineralar tugrisida umumiy tushuncha va ularning xalk xujaligida ishtirok 6. Ekzogen va endogen jarayonlarga chizmalar chizish 7. O'zbekistonning geologik xaritasini bo'yash 8. Geomorfologik xaritalar, kesimlar. O'zbekistonning geomorfologik xaritasi 9. O'zbekiston Respublikasi hududi relefining genetik turlarini tavsiflash 10. Nisbiy va mutlaq geoxronologiyani o'rganish metodlari 11. Nisbiy va mutlaq geoxronologiyani o'rganish metodlari 12. Zilzila jarayonlari. 13. Magmatizm jarayonlari. 14. Vulkanizm jarayonlari. 15. Metomorfik tog' jinslari. 16. Cho'kindi tog' jinslari xosil bo'lishi va turlari. 17. Nurash jarayonlari. yonbag'irlar va relyef. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirishi natijasida talaba:	Geologiya va geomorfologiya fanini Yerning shakli, kattaligi, tuzilishi, tarkibi, harakati, rivojlanish bosqichlari, geologik jarayonlar haqidagi ma'lumotlar va ularni Yer relefining hosil bo'lishidagi o'rni, Yerning relefi, relef elementlari, shakllari va turlari, relef turlarining yer yuzasida taqsimlanishi, o'ziga xosligi va ularni turli geografik tadqiqotlarni bajarishda hisobga olish, litosfera va unda sodir bo'ladigan endogen geologik jarayonlar, ularni relef hosil qilishdagi ahamiyatini o'rgatish. Shuningdek, atmosfera, gidrosfera va ularning ta'sirida rivojlanadigan ekzogen geologik jarayonlar, ekzogen geologik jarayonlarning yer yuzasida turli xil relef shakllari, turlari va yotqiziqar hosil qiluvchi faoliyatlari, rivojlanish qonuniyatlari, yer yuzida tarqalishi va ularni geodezik, geologik ishlarni bajarishda hisobga olish, geologik, geomorfologik qidiruv va tadqiqot ishlarning turlari, mazmuni va baxmini tahlil etish bilimlari tasavvur va bilimga ega bo'lishi. Talaba relef va uni xosil kiluvchi omillarni, relef tiplari va shakllarining xosil bo'lish (rivojlanish) qonuniyatlarini, geoxronologik jadvalni, eonlar, eralar va davrlarni bilishi kerak, - endogen va ekzogen kuchlar hamda ular hosil qilgan relef shakllarini, tog' jinslari va mineralarning turlarini, ularning genezisi, tarkibi, strukturalari va boshqa xususiyatlarini, planetar relef shakllarini ajrata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi.
	3.

	Talaba tektonik harakatlar va ularning turlarini, geologik va geomorfologik tadqiqot usullarini qo'llay olish, geologik va geomorfologik xaritalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • amaliy mashg'ulotlarni bajarish va xulosalash; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditni olish uchun bakalvr: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Жүүлєв А.Х., Чиникүлєв Х. Умумий геология. -Т.: 2005. 2. Жүүлєв А., Соатов А., Юсупов Р. Геология асослари. -Т.: 2001. 3. Леонтьєв О.К., Рычагов Г.И. Общия геоморфология. -М.: 1986. 4. Шоракмєдов III III. Умумий ва тарихий геология. -Т.: 1985. 5. Мапатқулєв М., Нигматов А., Юсупов Р. Геоморфология. О'қув қў'ланма. -Т.: 2006. 6. Х.Журакулов, Умумий геоморфология. –Самарқанд, 2006 Qo'shimcha adabiyotlar: 7. Алисов А., Пальмер Д. Геология. -М.: 1988 8. Гаврилєв В.Н. Общия и историческая геология. -М.: 1989. 9. Костєнко Н.П. Геоморфология. -М.: 2002. 10. Соатов А., Юсупов Р. ва б. Геоморфологиядан тест топшириқлари. -Т.: 1998. 11. Уотсон Ж. Геология и человек. -Л.: 1986. 12. Юсупов Р., Жүүлєв А., Соатов А. Геоморфология асослари. -Т.: 1997. 13. Якушко О.Ф. Основы геоморфологии. -Минск, 1986. 14. Шоракмєдов III III. Қўлқиров Умумий ва тарихий геологиядан лаборатория машғулоти учун қўланма. -Т.: 1988. 15. Wilhelm H. Geomorphologie in stichworten. Stuttgart. «Gebruder Borntraeger» 2004 16. Нигматов А.Н. Юсупов Р. Табиий географик комплекслар ва экотен жараянлар. -Т.: Турон iqbol, 2006. 17. Геология ва геоморфология асослари" фани бўйича тайёрланган ўқув услубий Axborot manbaalari 18. www.Ziyo.net. 19. www.geogr/msu.ru/GijSiterdepis geom.html 20. www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH/geologias osnggeomorfologi.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. 2024 yil "24"
8.	Fan/modul uchun mas'ullar:
9.	Jurakulov X.J. – SamDU, "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori, g.f.n. Taqdirlashlar: M. Nazarov – Qarshi davlat universiteti dotsenti, g.f.n. (tashqi) B. Raxmanov – SamDU, "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori (ichki) Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ijroi buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi: Rais – Xaydarov S.A.



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Gidrometeorologiya" kafedrasi prof. X. Jurakulov tomonidan 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun "Geologiya va geomorfologiya asoslari" fanidan fan sillabusiga

TAQRIZ

Mazkur fan sillabusi 2024 yil tasdiqlangan "Geologiya va geomorfologiya asoslari" fanidan tuzilgan namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan. Ushbu sillabus o'quv jarayonida geografiyaga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur faning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, fan sillabusida fan kodi, o'qitilgan servistri, mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari va unga ajratiladigan ballar, talaba to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori, baholash shakli, fanni o'qitish tili, faning maqsadi, o'zlashtirish uchun boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalari bevosita bilimlar jihatidan va ko'nikmalar jihatidan berilgan. Bundan tashqari talaba uchun sillabusda mashg'ulotlar shakli, xususan ma'ruza bo'linida olingan nazariy bilimlar natijasida talabalar bilimlarni bilishi hamda o'zlashtirilgan bilimlar natijasida nimaga erishishi berilgan. Sillabusda mustaqil ish ta'limi bajarish bo'yicha talabalar, asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar hamda sillabus yakunida talabalar bilimlari nazorat qilish mezonlari va tartibi va eng so'ngida esa fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot to'liq berilgan.

"Geologiya va geomorfologiya asoslari" fan sillabusi OTM uchun me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi.

Yuqoridagilarni qayd etgan holda prof. X. Jurakulov tomonidan tuzilgan fan sillabusi belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

Qarshi davlat universiteti

Geografiya va agronomiya fakulteti

Geografiya kafedrasi mudiri

dots M. Nazarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Gidrometeorologiya" kafedrası prof. X. Jurakulov tomonidan 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun "Geologiya va geomorfologiya asoslari" fanidan fan sillabusiga

TAQRIZ

Mazkur fan sillabusi 2024 yil tasdiqlangan "Geologiya va geomorfologiya asoslari" fanidan tuzilgan namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan. Ushbu sillabus o'quv jarayonida geografiyaga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur faning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, fan sillabusida fan kodi, o'qiladigan semestri, mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari va unga ajratiladigan ballar, talaba to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori, baholash shakli, fanni o'qitish tili, fanning maqsadi, o'zlashtirish uchun boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalari bevosita bilimlar jihatidan va ko'nikmalar jihatidan berilgan. Bundan tashqari talaba uchun sillabusda mashg'ulotlar shakli, xususan ma'ruza bo'limida olingan nazariy bilimlar natijasida talabalar nimalarni bilishi hamda o'zlashtirilgan bilimlar natijasida nimaga erishishi berilgan. Sillabusda mustaqil ish ta'limni bajarish bo'yicha talabalar, asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar hamda sillabus yakunida talabalar bilimni nazorat qilishi mezonini tartibi va eng so'ngida esa fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot to'liq berilgan.

"Geologiya va geomorfologiya asoslari" fan sillabusi OTM uchun me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi.

Yuqoridagilarni qayd etgan holda prof. X. Jurakulov tomonidan tuzilgan fan sillabusi belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

SamDU Gidrometeorologiya

kafedrası professori t.f.n.

B. Raxmanov